

Jismoniy shaxs hisobvarag'idan yakka tartibdagi tadbirkor hisobvarag'iga kreditni so'ndirish maqsadida valyutani konvertatsiya qilish va pul mablag'larini avtomatik o'tkazish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun

OMMAVIY OFERTA

Toshkent sh.

2025 y. "___" _____.

Ushbu hujjat "**Kapitalbank**" ATBning (keying o'rinlarda – "**Bank**") Boshqaruv raisi Ustav asosida ish yurituvchi **K.L. Maevskiy** timsolida bir tomondan, hamda Bankda talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga ega bo'lgan va ushbu ommaviy ofertani hech qanday shartlar, istisnolar va e'tirozlarsiz qabul qilgan (akseptlagan) jismoniy shaxs (keying o'rinlarda – "**Mijoz**"), ikkinchi tomondan, Mijozning kreditini so'ndirish maqsadida ushbu **Ommaviy ofertani** tuzadilar.

Mijoz tomonidan ushbu Ommaviy ofertada nazarda tutilgan harakatlarning bajarilishi uning quyida bayon etilgan shartlarga (hech qanday shartlar, istisnolar va e'tirozlarsiz) so'zsiz roziligini anglatadi.

Ushbu Ommaviy ofertada bevosita nazarda tutilmagan barcha masalalar bo'yicha Taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomalarga, shuningdek ish muomalasi odatlari va amaliyotiga amal qiladilar.

I. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

1.1. Ushbu Shartnoma–ofertada quyidagi atamalar va ta'riflar qo'llaniladi:

Mijoz – bank oldidagi kredit bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish majburiyatini o'z zimmasiga olgan hamda Bankda talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga ega bo'lgan, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxs (keying o'rinlarda – "YaTT").

Karta – O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan emissiya qilingan Uzcard, Humo bank kartalari, shuningdek "Kapitalbank" ATB tomonidan emissiya qilingan, milliy valyutadagi Visa International kartasi.

Jismoniy shaxsning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i (keying o'rinlarda — Depozit hisobvarag'i) – Mijozning milliy va/yoki xorijiy valyutadagi pul mablag'lari hisobga olinadigan, uning birinchi talabi bo'yicha beriladigan yoki o'tkaziladigan bank hisobvarag'i.

Yakka tartibdagi tadbirkorning kreditni so'ndirish uchun maxsus hisobvarag'i (keying o'rinlarda – YaTT hisobvarag'i) – Bank oldidagi qarzdorlikni so'ndirish uchun mo'ljallangan, YaTTning milliy va xorijiy valyutadagi pul mablag'lari hisobga olinadigan bank hisobvarag'i.

Aksept to'g'risidagi ariza (Ariza) – Mijozning ushbu Ommaviy ofertani to'liq va so'zsiz qabul qilganligini tasdiqlovchi aniq va avtomatik roziligi.

Konvertatsiya – Mijoz tomonidan belgilangan valyuta kursi bo'yicha milliy valyutaga xorijiy valyutani sotib olish operatsiyasi.

Xorijiy valyuta – AQSh dollari.

Milliy valyuta – O'zbekiston so'mi.

Valyuta kursi – ushbu Ommaviy oferta doirasida konvertatsiya operatsiyalarini amalga oshirish uchun Bank tomonidan belgilanadigan, O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasiga nisbatan xorijiy valyutaning rasmiy ayirboshlash kursi. Valyuta kursi ushbu Ommaviy oferta doirasida operatsiya amalga oshirilayotgan vaqtda "KAPITALBANK.ONLINE" mobil ilovasida qo'llaniladigan valyuta ayirboshlash kursiga mos keladi.

Bank sayti – <https://payloan.kapitalbank.uz/>

Ushbu Ommaviy ofertada ta'riflanmagan atamalar va tushunchalar amaldagi qonunchilikda belgilangan ma'nolarda, ularning so'zma-so'z mazmuni va ibora kontekstidan kelib chiqqan holda qo'llaniladi.

II. OMMAVIY OFERTANING PREDMETI

2.1. Bank ushbu Ommaviy oferta shartlariga muvofiq, kartada mavjud bo'lgan milliy valyutadagi pul mablag'larini Mijozning milliy valyutadagi depozit hisobvarag'iga o'tkazish, depozit hisobvarag'idagi milliy valyutani belgilangan valyuta kursi bo'yicha xorijiy valyutaga konvertatsiya qilish hamda Mijoz hisobvarag'idan yakka tartibdagi tadbirkor (keying o'rinlarda – YaTT) hisobvarag'iga kredit bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish maqsadida pul mablag'larini avtomatik o'tkazish operatsiyalarini amalga oshiradi.

2.2. Bank o'z nomidan, biroq Mijoz topshirig'iga binoan va uning hisobidan quyidagi operatsiyalarni amalga oshiradi:

ushbu Ommaviy ofertada nazarda tutilgan shartlar asosida kartada mavjud bo'lgan milliy valyutadagi pul mablag'larini Mijozning milliy valyutadagi depozit hisobvarag'iga o'tkazish, depozit hisobvarag'idagi milliy valyutani belgilangan valyuta kursi bo'yicha xorijiy valyutaga konvertatsiya qilib, Mijozning xorijiy valyutadagi depozit hisobvarag'iga o'tkazish, shuningdek xorijiy valyutadagi depozit hisobvarag'idan YaTT hisobvarag'iga pul mablag'larini avtomatik o'tkazish.

2.3. Ushbu Ommaviy ofertaning 2.2-bandiga muvofiq xorijiy valyutadagi depozit hisobvarag'idan YaTT hisobvarag'iga pul mablag'larini avtomatik o'tkazish faqat YaTT hisobvarag'i Mijozning o'ziga yakka tartibdagi tadbirkor sifatida tegishli bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi. Mijoz hisobvarag'idan boshqa yakka tartibdagi tadbirkorga tegishli YaTT hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazish taqiqlanadi.

2.4. Ushbu Ommaviy ofertaning 2.2-bandiga muvofiq amalga oshiriladigan pul mablag'larini avtomatik o'tkazish Bank tomonidan Mijozning yakka tartibdagi tadbirkor sifatidagi kreditini so'ndirish (to'lash) uchun, kreditni so'ndirish jadvaliga muvofiq, akseptsiz tarzda pul mablag'larini hisobdan chiqarish maqsadida amalga oshiriladi.

III. OMMAVIY OFERTANI TUZISH TARTIBI (Ommaviy ofertani aksept qilish)

3.1. Ushbu Ommaviy oferta matnining Bank saytida e'lon qilinishi (joylashtirilishi) uni aksept qiluvchi Mijozlarga qaratilgan ommaviy taklif (oferta) hisoblanadi.

3.2. Mijoz Bank saytida "Oferta shartlariga roziman" oynasida belgi (✓) qo'yish orqali Arizani imzolab, ushbu Ommaviy ofertani aksept qiladi.

3.3. Shu bilan Mijoz Arizani 3.2-bandda nazarda tutilgan tartibda imzolashi shaxsan Mijoz tomonidan amalga oshirilgan deb e'tirof etilishini hamda u O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq qo'lda qo'yilgan imzoga teng yuridik oqibatlarni keltirib chiqarishini tasdiqlaydi.

3.4. Mijoz tomonidan ushbu Ommaviy ofertaning aksept qilinishi (tasdiqlanishi) quyidagilarni anglatadi:

- Bankka milliy valyutani xorijiy valyutaga konvertatsiya qilish hamda Mijozning xorijiy valyutadagi depozit hisobvarag'idan YaTT hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish topshirig'ining berilishi; bunda konvertatsiya belgilangan valyuta kursi bo'yicha, pul mablag'larini Mijozning xorijiy valyutadagi depozit hisobvarag'idan YaTT hisobvarag'iga o'tkazish esa avtomatik tartibda amalga oshiriladi;
- Bankning kredit shartnomasi bo'yicha qarzdorlikni to'liq so'ndirish maqsadida Mijozning depozit hisobvarag'idan, shu jumladan YaTT hisobvarag'idan, zarur pul mablag'larini akseptsiz tarzda hisobdan chiqarish huquqiga so'zsiz va qaytarib olinmaydigan rozilik.

3.5. O‘zbekiston Respublikasining elektron hujjat aylanishi to‘g‘risidagi qonunchiligiga muvofiq, Taraflar ushbu aksept qilingan Ommaviy ofertani qog‘oz shaklidagi shartnomaga tenglashtiradilar, uning xuddi shunday yuridik kuchga ega ekanligini tasdiqlaydilar hamda uni muhrlar bilan tasdiqlashni va/yoki Taraflar tomonidan qo‘lda imzolashni talab etmaydilar.

IV. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

4.1. Mijozning majburiyatlari:

4.1.1. Bankda ochilgan Depozit hisobvarag‘iga ega bo‘lishi;

4.1.2. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lishi va YaTT hisobvarag‘iga ega bo‘lishi.

4.2. Mijozning huquqlari:

4.2.1. Ushbu Ommaviy ofertani aksept qilganidan voz kechish huquqiga ega bo‘lib, buning uchun Bankka qog‘oz shaklida tegishli yozma ariza taqdim etishi mumkin. Biroq mazkur ariza topshirilgan paytda Mijozning Bank oldida kredit bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorligi mavjud bo‘lmasligi shart.

4.2.2. Ko‘rsatilgan xizmat sifati bo‘yicha Bankka xizmat ko‘rsatilgan kundan boshlab 30 (o‘ttiz) kalendar kun ichida da’vo (e’tiroz) yuborish.

4.3. Bank huquqlari:

4.3.1. Quyidagi hollarda ushbu Ommaviy ofertani aksept qilishni rad etish:

- uni tuzishdan maqsad jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirish yoki terrorismni moliyalashtirishga qaratilgan operatsiyalarni amalga oshirishdan iborat, degan shubhalar mavjud bo‘lsa;
- aksept qilish vaqtida Bankda texnik yoki boshqa imkoniyatlar mavjud bo‘lmasa;
- Mijozda depozit hisobvarag‘i mavjud bo‘lmasa;
- Mijozda YaTT hisobvarag‘i mavjud bo‘lmasa;
- Mijoz yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tmagan bo‘lsa;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa holatlar mavjud bo‘lsa.

4.3.2. Mijozlarni va boshqa shaxslarni oldindan xabardor qilmasdan, ushbu Ommaviy ofertaga bir tomonlama tartibda o‘zgartirishlar kiritish. Barcha o‘zgartirishlar Bank saytida e‘lon qilinadi va Bank saytida joylashtirilgan paytdan boshlab kuchga kiradi.

V. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Ushbu Ommaviy oferta bo‘yicha Taraflar o‘z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, shartlarni buzgan Taraf amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

5.2. Agar ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning to‘liq yoki qisman bajarilmasligi suv toshqini, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, embargo, urush yoki harbiy harakatlar, O‘zbekiston Respublikasi davlat organlari tomonidan qabul qilingan Taraflarning Ommaviy oferta bo‘yicha majburiyatlarini bajarishiga to‘sqinlik qiluvchi qarorlar, ajrimlar yoki boshqa hujjatlar, shuningdek ushbu Shartnoma tuzilganidan keyin yuzaga kelgan va Taraflar irodasiga bog‘liq bo‘lmagan boshqa holatlar (elektr energiyasining uzilishi, stansiyalararo ulanishlar va Internet tarmog‘i provayderlari aybi bilan telekommunikatsiya aloqasining yo‘qligi va shu kabilar) oqibati bo‘lsa, Taraflarning hech biri javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

5.3. Agar Taraflar muzokaralar yo‘li bilan kelishuvga erisha olmasalar, ushbu Ommaviy ofertadan kelib chiqadigan yoki u bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan barcha nizolar,

kelishmovchiliklar, talablar yoki da'volar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan ishlarning sudga taalluqliligi va sudlovga tegishliligiga muvofiq sud tartibida hal etiladi.

VI. OMMAVIY OFERTANING AMAL QILISH MUDDATI

6.1. Ushbu Ommaviy ofertaning amal qilish muddati cheklanmagan.

6.2. Ushbu Ommaviy ofertaning amal qilishi Bank tomonidan o'z xohishiga ko'ra istalgan vaqtda Bankning rasmiy veb-saytida tegishli xabarnoma e'lon qilish yo'li bilan to'xtatilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

VII. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Agar ushbu Ommaviy ofertaning biron-bir qoidasi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq noqonuniy va/yoki haqiqiy emas deb topilsa, bunday qoida Taraflar o'rtasidagi munosabatlarda qo'llanilmaydi va Ommaviy ofertada nazarda tutilgan dastlabki niyatlarga imkon qadar mos keladigan yangi qoida bilan almashtiriladi. Ommaviy ofertaning qolgan qoidalari to'liq kuchda va amalda qoladi.

7.2. Ushbu Ommaviy ofertada nazarda tutilmagan barcha masalalarda Taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

7.3. Ushbu Ommaviy oferta o'zbek tilida ishlab chiqilgan va e'lon qilingan.

VIII. MANZIL VA REKVIZITLAR

“KAPITALBANK” ATB

Toshkent shahri,

Yunusobod tumani, Sayilgoh ko'chasi, 7-uy.

Hisob raqami: 29802000000001088001

MFO: 01088

STIR: 207127843

Tel.: 200-15-15, 200-16-16